

To'ra Bobolovning navbatdagi tadbirkorlar qabuli bo'lib o'tdi.



Termiz shahridagi "Imom At-Termiziy" ilmiy tadqiqot markazining majlislar zalida viloyat hokimi To'ra Bobolovning "Tadbirkorlar qabuli" bo'lib o'tdi.

Unda viloyat ichki ishlar boshqarmasi boshlig'i, viloyat prokurori o'rinbosari, viloyat hokimining o'rinbosarlari, kotibiyat mudirlari, shahar va tumanlar hokimlarining tegishli o'rinbosari, iqtisodiy korxonalar rahbarlari ishtirok etdi.

Qabulda tadbirkorlar o'zlarining muammolari yuzasidan viloyat hokimiga to'g'ridan-to'g'ri murojaat qilishmoqda. Murojaatlarning aksariyati joyida hal etilayotgan bo'lsa, yechimi ma'lum vaqt talab etiladigan masalalar bo'yicha soha mutasaddilariga aniq vazifalar yuklatildi..

Surxondaryo viloyati hokimligi Matbuot xizmati